

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLER VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOIYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARINING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

WAYS TO FURTHER IMPROVE THE PREVENTION OF VIOLENCE AMONG SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich

Senior Lecturer, CAMU International Medical University

E-mail: alisher_madraximov@gmail.com

Abstract. This article analyzes cases of violence among secondary school students and examines their social and psychological causes. It also discusses ways to strengthen preventive measures within the school environment and enhance the effectiveness of cooperation among parents, teachers, and psychologists. Based on the research findings, modern approaches and innovative methods for preventing violence are proposed.

Keywords: students, violence, prevention, school environment, parental cooperation, psychological approach.

O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich

CAMU Xalqaro tibbiyot universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida uchraydigan zo'ravonlik holatlari, ularning ijtimoiy va psixologik sabablari tahlil qilinadi. Shuningdek, maktab muhitida profilaktik choralarni kuchaytirish, ota-ona, pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari asosida zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan zamonaviy yondashuv va innovatsion metodlar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, zo'ravonlik, profilaktika, maktab muhiti, ota-ona hamkorligi, psixologik yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N83>

Kirish. Ta'lim muassasalarida bullying holatlari profilaktikasini tashkillashtirish va mavjud amaliyotni yanada takomillashtirish uchun bugungi kunda qator chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. O'tkazilgan so'rov hamda xorijiy tajribalarga tayanilgan holda, aytib o'tish lozimki, birinchi navbatda, maktab o'quvchilari o'rtasidagi va ularga nisbatan katta yoshlilar tomonidan amalga oshirilayotgan har qanday ko'rinishdagi zo'ravonliklar bee'tibor qoldirilmasligi kerak. Agar maktabda bullying holati zo'ravonlik sifatida qabul qilinsa va bu borada butun jamoa tomonidan bir xilda tushuniladigan umumiy tushuncha va kelishuvga erishilgan bo'lsa, unda hatto bevosita ishtirokchi bo'lmaganlarning ham bezorilik holatlariga nisbatan sezgirligi oshadi, ular o'zlarida ushbu holatda mos javob berish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Ikkinchidan, bullying holatlarida barcha ishtirokchilar va guvohlar faol qarshilik ko'rsatishlari hamda o'zlarining qarshi pozitsiyalarini ochiq namoyon qila olishlari kerak. Agar o'qituvchi bezorilik holatidan xabardor bo'lsa yoki bunday holatga guvoh bo'lsa, u aniq va ravshan pozitsiyani egallashi shart. O'qituvchi, hech bo'lmaganda, "kuzatuvchilar"ni va iloji

bo'lsa, "agressor" ning o'zini zo'ravonlikka nisbatan pozitsiyasini o'zgartirishga harakat qilishi, shuningdek, bu vaziyat jabrlanuvchi uchun qanday psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushuntirishi lozim [1].

Keyingi muhim vazifa: bullingda "tajovuzkor" sifatida ishtirok etgan tomon bilan alohida suhbat o'tkazilishi lozim. Suhbatda maktab bezorilikka toqat qilmasligini aniq ko'rsatib berish kerak. Bu boshqalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi uchun ham amalga oshirilishi shart. Shuni esda tutish kerakki, agressorlar bilan ishlashda tanqid qilish, shuningdek, xatti-harakatlarini to'g'rilashlariga ruxsat berilishi lozim, faqat shaxsiyatiga tegmagan holda. Tajovuzkorning xatti-harakati albatta salbiy qabul qilinishi maktab nizomlarida aks etishi, tarbiya muhitining barcha ishtirokchilari – pedagoglar jamoasi, ota-onalar va o'quvchi-yoshlar, maktab ma'muriyati o'rtasida bu kabi masalalarda yagona kelishuv bo'lishi lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shuni yodda tutish kerakki, bunday bolalar va o'smirlarning intilishini zo'ravonlikdan boshqa tomonga yo'naltirish lozim. Agar zo'ravon ta'lim muassasasida o'zlari uchun yetarlicha mazmun hamda biron bir qiymatga ega bo'lgan mashg'ulot topa olsalar, zo'ravonlik qilishga qiziqishni yo'qotadilar, unda o'zlarining bor imkoniyatlarini boshqa yo'nalishda ko'rsatishga qodir bo'ladi, shu orqali g'oliblik tuyg'usini his qilishlari mumkin.

Sanksiyalar bolaga qanday erkin tanlovlar bo'lishi mumkinligini bilishning ajoyib usuli hisoblanadi. Agar kattalar bunday cheklovlarga dosh bera olsa, bu o'smirni o'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga o'rgatadi. Shuni yodda tutish kerakki, bolalar va kattalar o'rtasidagi normal munosabatlar uchun javobgarlik faqat katta avlod vakillariga tegishli. Shuningdek, bolaning maktabda va uyda hayotini tartibga solish uchun turli qoidalaridan foydalanish tavsiya etiladi, ayni paytda, bunday me'yoriy qoidalar bir-biriga zid bo'lmasligi kerak.

Navbatdagi muhim vazifa "jabrlanuvchi" bilan suhbat bo'lib, jabrlangan o'quvchini himoya qilish va zo'ravonlik haqidagi ma'lumotni yashirishni to'xtatish juda muhimdir. Bulling qurboni bo'lgan bola bilan maxfiy tarzda suhbat olib borilishi, uni tushunishga harakat qilinishi juda muhimdir. Bunda u kattalarning va atrofdagilarning qo'llab-quvvatlashini his qilishi, salbiy his-tuyg'ular (qo'rquv, xafagarchilik, aybdorlik hissi)ni bartaraf etishga erishish lozim [2].

Sinfdoshlar va boshqa tengdoshlarning, umuman, maktab jamoasining voqeadan xabardorligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, bulling amalga oshirilgan sinfdagi bolalar bilan zo'ravonlikni alohida muhokama qilish lozim. Bunday suhbat vaziyatni hamma uchun ravshan qiladi, nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilishga yordam beradi, birgalikda bullingga qarshi mavjud qoidalar ko'rib chiqiladi yoki yangilari ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, o'zini ijobiy tutgan o'quvchilarga suhbat va muhokamada faol ishtirok etishlariga imkon berib, ularning ijobiy tajribalari boshqa tengdoshlari o'rtasida kengroq ommalashtirilishi lozim. Shuningdek, bu holat pedagogik jamoa o'rtasida ham muhokama qilinib, tahlil qilinishi lozim. Jamoa bulling holatlaridan xabardor bo'lishlari va vaziyatni nazorat qilishlari kerak.

Bulling holatlarining oldini olishda pedagoglar jamoasi muhim o'rin tutadilar. Zero, professional bilimlarga va tarbiyalash mahoratiga ega mutaxassislar sifatida aynan pedagoglar jamoasi maktablardagi zo'ravonlik holatlarini kamaytirishga va oldini olishga qodirdirlar.

Birinchidan, pedagoglar bunday muammo mavjudligini tan olishlari kerak va bu ko'ringanidan ko'ra jiddiyroq qadam hisoblanadi. Garchi biz jabrlanuvchining manfaatlarini hurmat qilish haqida gapiradigan bo'lsak-da, amalda biz ko'pincha zo'ravonning foydasiga

harakat qilamiz. Misol uchun, o'quvchilar ko'pincha tajovuzkorga havas qiladilar, ba'zi o'qituvchilar esa, o'zlarini himoya qila olmaydigan bolalarni hurmat qilmaydilar. Ba'zida o'qituvchilar bolalarga o'z muammolarini mustaqil ravishda hal qilish imkoniyatini berish yaxshiroq, deb o'ylashadi yoki ular og'zaki bullingni zararsiz va e'tibor berishga arzimaydi, deb hisoblashadi. Ba'zi rahbarlar ota-ona kabi faol harakat talab qiladigan boshqa odamlarga duch kelmaguncha, ushbu mavzuni muhokama qilishni istamaydilar. Zo'ravonlik bunga ruxsat beruvchi muhit, shuningdek, yetarlicha nazorat yo'qligi va yetarlicha javob berilmayotganligi sababli davom etadi [3].

Pedagoglar bulling holatida xotirjamlikni saqlashlari, muammoga jiddiy yondashishlari, tez va ehtiyotkorlik bilan harakat qilishlari, zarurat tug'ilganda, huquqbuzarni jazolash va jazoning sababini tushuntirishlari, zo'ravonga uning xatti-harakatini ma'qullanmasligini tushunishga majburlashlari, zo'ravonga jabrlanuvchining yondashuvini tushunishiga harakat qilishlari, jabrlanuvchini qo'llab-quvvatlash, uning ko'nglini ko'tarish, uning o'zini zaif yoki ahmoq his qilishiga yo'l qo'ymasliklari, aniq yordam taklif qilishlari lozim.

Bullingning, ayniqsa, o'smirlar o'rtasida keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri – yakkalab qo'yish bo'lib, bu og'ir oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ruhiy zo'ravonlikdir, qo'shimchasiga bu jamoaviy tarzda sodir etiladi va befarq munosabatda bo'lgan yoki ikkilangan o'quvchilarni ham, bullingga faol jalb qilinishiga sabab bo'ladi.

Muhokama va natijalar. “Yakkalab qo'yilganlar” bilan ishlashda o'qituvchilar, birinchi navbatda, sinfdoshlarning muvaffaqiyatsizliklarini masxara qilinish holatlari aniqlanishi bilanoq to'xtatishga harakat qilishlari kerak. Tengdosh o'rtog'ining muvaffaqiyatsizligi o'yinkulgi yoki xursandchilik uchun sabab bo'lishi mumkin emasligini tushuntirib, bu vaziyatga o'z munosabatini bildirishlari lozim. Biz hammamiz o'rganamiz va hamma xato qilish huquqiga ega, masxara qiluvchiga shu kabi ma'nolardagi jiddiy e'tiroz bildirilishi kerak.

Ikkinchidan, o'quvchilar sinfdoshlari haqida so'zlaganlarida har qanday kamsituvchi so'zlardan qochishlari kerakligi ularga tinch vaziyatda davomli tarzda tushuntirilishi, singdirib borilishi lozim. Shuningdek, agar biron sababga ko'ra, bolaning obro'siga putur yetsa, unga o'zini qulay tomondan ko'rsatish imkoniyatini berish kerak [4].

Qo'shma tadbirlar, sayohatlar, tomoshalar va shu kabilar sinfni birlashtirishga yordam beradi. O'qituvchi eng faol bolalarga boshqalarni kamsitish hisobiga emas, balki o'z imkoniyatlari hisobiga o'zini namoyon qilish va isbotlashlariga e'tibor qaratishlari kerak.

Sinfda bolalarni tengdoshlari o'rtasida masxara qilish va solishtirishdan qochish kerak. Ba'zi o'qituvchilar hatto test topshiriqlari uchun baholarni ham ommaga e'lon qilmaydilar, balki ularni kundaliklariga yozib qo'yishadi. Xatolarni tahlil qilishda, uni sodir qilgan bolaning nomini qayd etmasdan yoki o'zi bilan individual amalga oshirilishi kerak. Ta'qib qiluvchilar bilan esa, nima uchun jabrlanuvchini tahqirlashlari haqida gaplashish, ularning e'tiborini jabrlanuvchining his-tuyg'ulariga qaratishlari lozim.

Sinf rahbarining profilaktik faoliyati pedagogik yordamning g'oyalari va tamoyillariga asoslanadi. Pedagogik yordam deganda “ta'lim muassasalari vakillari–mutaxassislarining bolalarga o'zlarining jismoniy va ruhiy sog'liqlari bilan bog'liq individual muammolarini hal qilish, ta'lim olishda muvaffaqiyatga erishish, ish yuzasidan yoki shaxslararo muloqotni samarali olib borish, hayotda o'z o'rnini topishga qaratilgan profilaktik va tezkor yordam choralari” tushuniladi [5]. Ayniqsa, o'smirlik muhitida bulling hodisasining yuz berishiga olib keladigan jarayonlarning o'ziga xosligi ushbu holatlarida pedagogik yordamdan

foydalanishning muhimligini asoslash uchun yetarlidir. O'smirlarning muloqot jarayonida duch keladigan muammolari individuallikka ega bo'lib, o'qituvchi zo'ravonliklarning oldini olishda har bir holatga alohida e'tibor qaratishi talab etiladi.

Bezorilikning oldini olishda sinf rahbari faoliyatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- shaxsning individual kuchli jihatlari va imkoniyatlariga tayanish;
- bolaning to'siqlarni mustaqil ravishda yengib o'tish qobiliyatiga e'tibor qaratish;
- o'zaro uyg'unlik, hamkorlik, o'zaro yordam;
- xavfsizlik, insonning sog'lig'i, huquqlari, qadr-qimmatining himoyalanganligi;
- jamoaviy hamkorlik tamoyili;
- parallel harakatlanish tamoyili.

Bulling profilaktikasining muhim elementi ota-onalardir.

Bugungi kunda aynan ota-onalarning tutgan pozitsiyalari, ya'ni ularning aksariyati maktab faoliyatidan uzoq ekanliklari, ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy jarayonlardan uzilib qolganliklari, ikkinchi tomondan esa, (so'rov natijalariga ko'ra ma'lum bo'lmoqda) zo'ravonlik holatlarida maktab o'quvchilari, birinchi navbatda, ota-onalariga suyanishlari, muammoni hal qilish va undan chiqib ketishda eng ko'p ota-onalari bilan maslahatlashishlarini e'tiborga oladigan bo'lsak, jamiyatda bulling holatlarining va u bilan bog'liq og'ir oqibatlarining ko'payib ketayotganligiga ko'proq aynan ota-onalar javobgar, deyish mumkin. Shu boisdan, bulling holatlarida ishtirokchilarning ota-onalari bilan albatta suhbat olib borilishi va kelgusida shu kabi holatlar yuz bermasligi, farzandlari bilan qanday ish olib borish lozimligi yuzasidan tushuntirish o'tkazilishi kerak. Agar bulling boshlang'ich sinflarda sodir bo'lsa, ota-onalarni imkon qadar erta jalb qilish, ular bilan bulling belgilari nima (yoki bo'lishi mumkin) va javob berish strategiyalari qanday ekanligi va bo'lishi kerakligini muhokama qilish juda muhimdir [6].

Avvalo, ota-onalar, albatta, o'z farzandini yaxshi ko'rishlari va bola doimo ularda qo'llab-quvvatlash va suyanch hissi borligini bilishi uchun harakat qilishlari kerak. Har qanday bolani birinchi sinfdan boshlab, uni masxara qilish, sinfdoshlari tomonidan kalaka qilish yoki hatto urish mumkinligi haqida ogohlantirish juda muhimdir. Agar shunga o'xshash holat yuz bersa, bolangizni ota-onasiga yoki boshqa ishonchli yoshi katta insonga voqea haqida darhol aytib berishga o'rgating.

Farzandingizga maktabda bulling xavfi ostida qolmaslik uchun quyidagilarni qilishga o'rgating:

- tengdoshlari bilan munosabatlarda manmanlik, haqorat va boshqalardan ustunlik qilishga urinmaslik;

- o'zini kamtar tutish: o'z muvaffaqiyatlari, ota-onalari va do'stlari, kiyim va buyumlari bilan maqtanmaslik, o'zini kiborlardek tutmaslik (insonning eng ajoyib qobiliyatlari ham manmanlik va boshqalardan ustunligini namoyish qilish uchun asos bo'lolmaydi);

- o'zini yerga urmaslik va kamsitishlariga yo'l qo'ymaslik, masxara va xafagarchiliksiz yashash, boshqa odamlarga (sinfdoshlar, tengdoshlar va boshqalar) hurmat bilan munosabatda bo'lish;

- o'zidagi surunkali kasalliklari yoki jismoniy nuqsonlari tufayli boshqalarda rahm-shafqat uyg'otishga urinmaslik;

agar axloqiy me'yorlarga zid bo'lmasa, sinf yoki boshqa jamoaning (odamlar guruhining) qarorlarini diqqat bilan idrok etish, ularni e'tiborsiz qoldirmasdan qabul qila olish(o'z jamoasi oqimiga qarshi bormaslik);

jismoniy kuchini shunchaki ko'rsatmasdan, faqat o'zini yoki xafa bo'lganlarni himoya qilganda yuzaga chiqarish va ishlatish;

o'z iste'dodi yoki sevimli mashg'ulotlari bilan maqtanmasdan o'zini tutish, boshqalarni o'ziga jalb qilishni o'rganish va ularni o'zidan uzoqlashtirmaslik;

O'quvchilarning iqtidori sinf va maktabni yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak, shunda sinfdoshlar ushbu o'quvchi bilan birga o'qiyotganidan g'ururlansinlar va unga hasad qilmasliklari kerak (musobaqalarda maktab sharafiga himoya qilish, turli darajadagi olimpiadalarda qatnashishdan bosh tortmaslik).

Ota-onalar o'z farzandlariga sinfdoshlar orasidan do'st topish (bir nechta haqiqiy do'stlarning bo'lishi undan ham yaxshiroq), sinfdagi har bir o'quvchi bilan umumiy til topish, sinfdoshlarini mehmonga taklif qilish, sinfdoshlarining fikrini hurmat qilishni o'rgatishlari, tengdoshlari bilan nizolarda har doim g'alaba qozonish shart emasligini, haqiqatan ham, nohaq bo'lganda, muvaffaqiyatsizlikni tan ola bilishni va taslim bo'lish lozimligini tushuntirishlari kerak [7].

O'z farzandining sinfdoshlari orasida obro'sini oshirish uchun ota-onalar quyidagilarga e'tibor qaratishlari lozim:

bolaning muammolari bo'lgan sinfdoshlari bilan qo'rqmasdan munosabatga kirishishga o'rgatish;

ota-onalarning o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan aloqa o'rnatishi;

ota-onalar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan sinfdagi mashg'ulotlarda qatnashishi;

agar ota-onalarning bolalar uchun qiziqarli bo'lgan g'ayrioddiy xobbisi bo'lsa, bu haqda bolaning sinfdoshlariga aytish lozim. Agar ota-ona barcha turdagi avtomobil markalari haqida soatlab gapira olsa, unga hatto eng jangari tengdoshlari ham hayrat bilan qarashadi va bolaga tegajog'lik qilish ehtimoli ham pasayadi;

farzandingizning sinfdoshlarini, ayniqsa, unga hamdard bo'lganlarni imkon qadar tez-tez uning oldiga kelishlariga ruxsat bering;

bolaga uni har doim himoya qiladigan odamlar kerak, o'qituvchilar bilan bir qatorda bolaga xayrixoh bo'lgan bolalar guruhi ham bo'lishi lozim. Chunki o'quvchilar o'rtasidagi janjal ko'p hollarda tanaffus paytida, maktab hovlisida, o'qituvchilar nazaridan chetda sodir bo'ladi, bunday vaziyatlarda bolalar guruhi uni himoya qilishi mumkin;

bolaning haqiqiy yutuqlarini maqtash orqali uning o'zini hurmat qilish hissini rivojlantirish;

bolaning o'zini o'zi hurmat qilishi yuqori bo'lgan hollarda, unga buni boshqalarga ko'rsatmaslik kerakligini, har qanday odamning afzalliklari va kamchiliklari borligini tushuntirish;

bolaga nafaqat maktabga borishiga, balki sinfning haqiqiy a'zosi bo'lishiga yordam berish;

agar bola zo'ravonlikdan jabrlangan bo'lsa, unda jabrlanuvchining taqdiriga befarq bo'lmasdan, balki bullinga qarshi munosib javob qaytarish va bunda boshqalarning ham yordamidan foydalanish;

bolaning maktab tadbirlarida, hatto sizga keraksiz bo'lib tuyulsa ham, ishtirok etishiga qarshilik qilmaslik;

bolani sinfdoshlari orasida "sara" kiyimlar va o'ziga xos jozibasi bilan ajratib ko'rsatishga urinmaslik;

kiyinish qoidalaridan tortib, barcha bolalar uchun umumiy bo'lgan talablarga qanday amal qilishni o'rgatish [8].

Aksariyat bolalar haqoratlanganini tan olishdan uyaladilar. Ular bu haqda hech kimga aytmasligi mumkin. Agar bola bullingdan jabrlanuvchi bo'lsa va ota-onasiga yordam so'rab murojaat qilsa, buni ular jiddiy qabul qilishlari kerak. Agar bola birinchi marta yordam so'ragan bo'lsa, lekin u jiddiy qabul qilinmasa, ikkinchi marta ota-onasiga murojaat qilmaydi.

Ota-onalar farzandlari yordam so'rab murojaat qilmasalar ham, ular bulling jabrlanuvchisi bo'lganligini anglatadigan quyidagi belgilarga e'tibor berishlari lozim:

bola kamgap bo'lib qoladi;

do'stlarini yo'qotadi;

o'qishi yomonlashadi;

ilgari yaxshi ko'rgan mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishi yo'qoladi;

kiyimlari yirtilgan yoki kir holatda bo'ladi;

u uyga ko'kargan holda kelishi mumkin;

ko'proq pul so'rashi mumkin.

Agar ota-onalar bolalarini xafa qilishyapti, deb o'ylasalar yoki bola bu haqda ularga aytgan bo'lsa, unga yordam berishlari lozim. Ota-onalar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchiga eng yaxshi ta'sir ko'rsatishi va unga muammolarni hal qilishning eng yaxshi bir qator usullarini o'rgatishi mumkin.

Zo'ravonning ota-onasi bilan darhol ziddiyatga bormasdan, bolaning o'qituvchisi bilan gaplashish, agar o'qituvchi hech narsa qilmasa, direktor bilan bog'lanish mumkin. Farzandlariga bulling bilan kurashishning tajovuzkor bo'lmagan usullarini o'rgatishlari — uni zo'ravonlikdan qochishga yoki uzoqroq yurishga, do'stlari bilan muloqot qilishga yoki unga yordam bera oladigan odam bilan gaplashishga majbur qilishlari lozim.

Farzandlariga ishonch bilan harakat qilishiga, uni yelkasini qismay yurishga, boshqalarning ko'zlariga tik qarashga, aniq va baland ovozda gapirishga o'rgatishlari kerak. Bolalarni mushtlari bilan muammolarni hal qilishga undash kerakmas, bola janjal paytida jarohat olishi, muammoga duch kelishi va bezori bilan mojaroni kuchaytirib yuborishi mumkin. O'quvchilarni darsdan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilish orqali ularning ijtimoiy doiralarini kengaytirish va ko'proq do'stlarga ega bo'lishlariga erishish mumkin [2].

Har bir ota-ona uchun farzandining boshqalarga zarar yetkazayotganiga ishonish qiyin, lekin ba'zida shunday bo'ladi. Ammo agar u hozir boshqalarni masxara qilsa, bu kelajakda ham u shunday qiladi, degani emas. Ota-onalar farzandining o'zgarishiga yordam berishlari va sinfdoshlari bilan yaxshi muloqot qilishiga ko'maklashishlari lozim.

Buning uchun ota-onalar, avvalo, muammoni jiddiy qabul qilishlari kerak. Bezorilikni vaqtinchalik deb o'ylamasliklari, agar bu bolaga qanday ta'sir qilishi qiziqitirmasa ham, boshqa birov azob chekayotganligini unutmasliklari lozim.

Ota-onalar bezori farzandlari bilan albatta gaplashishlari, nima uchun u boshqalarni xafa qilayotganini surishtirib, bilib olishlari mumkin. Ko'pincha bolalar qayg'u, g'azab, yolg'izlik yoki ishonchsizlikni his qilganda shunday yo'l tutishadi. Ba'zida bu xatti-harakatga uyda, oiladagi

o'zgarishlar sabab bo'ladi. Zo'ravonlik qilayotgan o'quvchilarga boshqalarga hamdard bo'lishni o'rgatish, unga tahqirlangan odamning his-tuyg'ularini tushuntirish lozim [3].

Farzandlari maktabda biron bir muammoga duch kelsa, ota-onalar sinf rahbari yoki maktab direktorining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari bilan gaplashishlari kerak. Balki u qaysidir mavzuda ortda qolayotgandir yoki do'st orttirishda qiynalayotgandir. Bu muammoni hal qilishda bolaga qanday yordam berish mumkinligi haqida mutaxassislar bilan maslahatlashishlari lozim. Eng asosiysi, bolaning uyda tahqirlanyaptimi yoki yo'qmi, shunga e'tibor qaratish kerak, boshqalarni haqorat qiladigan bolalar ko'pincha ota-onalari yoki oila a'zolari tomonidan bulling jabrlanuvchisi bo'lishlari mumkin.

Xulosa. O'rta maktab o'quvchilari o'rtasida zo'ravonlikning oldini olish masalasi jamiyat taraqqiyoti va yosh avlod tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali profilaktika uchun maktab, oila va psixologlarning uzviy hamkorligi zarur. Shu bilan birga, o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik madaniyatini oshirish, ijobiy muhit yaratish va innovatsion ta'limiy metodlardan foydalanish zo'ravonlikka qarshi kurashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,30.04.2023.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.
3. Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ziyodulla Muqimov. Ikkinchi to'ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. – 131 b.
4. Durkheim Émile. The Rules of Sociological Method, Preface to the Second Yedition, trans. W.D.Halls, The Free Press, 1982. – P.45.
5. School violence and bullying: global status report. UNESCO. Assistant Director-General for Education, 2010-2018.
6. Sethi D, Racioppi F, Baumgarten I, Vida P Injuries and violence in the Yeuropeean Region: why they matter and what can be done, World Health Organization, Regional Office for Yeurope, in press.
7. The State obligation to protect and punis'h culturally justified violations is yelaborated upon in Ye/CN.4/2002/83, and in Ye/CN.4/2003/75, paras 67-69.
8. Ahrorov S.Yu. Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq namoyon bo'lishining ijtimoiy xususiyatlari. Sos. f. n. ilm. darajasini olish u-n tay. diss. – Toshkent: O'zMU, 2009.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).